

VOLUME 2, SPECIAL ISSUE 3

Scientific Journal

ERUS

Educational Research in Universal Sciences



RESEARCHBIB
ACADEMIC RESOURCE INDEX



digital object
identifier



Directory of Research
Journals Indexing

Scientific Journal Impact Factor : 5.564

ISSN: 2181-3515

Economics
Exact Sciences
Natural Sciences
Medical Sciences
Arts and Culture
Technical Sciences
Philological Sciences
Pedagogical Sciences
Psychological Sciences
Social Sciences and
Humanities

zenodo



OpenAIRE



PKP INDEX

2023/5

O'QUVCHILAR LUG'AT BOYLGINI ANIQLASHNING PSIXOFIZIOLOGIK ASOSI

Qayumova Ozoda Botir qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Maktab o'quvchilari so'z boyligini aniqlash – pedagogik, psixologik va metodik muammo. Maktab o'quvchilari so'z boyligini aniqlashning “tashqi muhit”, intellekt, individuallik kabi psixofiziologik asoslari mavjud. O'quvchilarning lug'at boyligini va nutqini rivojlantirishda kechadigan xotira va tafakkur, shuningdek, diqqatning ixtiyoriy va ixtiyorsiz holati kabi psixologik jarayonlar yuz beradi.

Kalit so'zlar: faol lug'at, passiv lug'at, situativ til, lug'at boyligi, kichik maktab yoshi, psixodiagnostik eksperiment, Frayer modeli

Abstract: Defining vocabulary of pupils – pedagogical, psychological and methodological problem. There are psychophysiological bases for determining the vocabulary of school pupils, such as “external environment”, intellect, individuality. Psychological processes such as memory and thinking, as well as, voluntary and involuntary states of attention, occur in the development of pupils vocabulary and speech.

Key words: active vocabulary, passiv vocabulary, situational language, vocabulary, small school age, psychodiagnostic research, Frayer model.

Ma'lumki, til ta'limida o'qish, yozish, so'zlash malakasining shakllanishi, o'quvchilar dunyoqarashining kengayishi, ijodiy fikrlashining rivojlanishida so'z boyligi kerakli omildir. Shu sababdan o'quvchilarda so'z boyligini oshirishning samarali va maqbul yo'lini tanlash lozim.

Hozirgi kunda ona tili ta'limida o'quvchilarning so'z boyligini aniqlashga hamda uni boyitishga doir tizimli metodik tavsiyalar ishlab chiqilmagan. Xorij tajribalarida esa bu mavzu tizimli yoritilgan. Til ta'limiga xorijiy ilg'or pedagogik tajribalarni olib kirish dolzarbdir. M.R. Lvov “So'z tilning asosiy ma'no birligini ifodalasa, lug'at boyligi ham butun jamiyatning, ham har bir shaxsning muloqot jarayonidagi taraqqiyot belgisidir”, – deb aytadi.[2:176]. Maktab o'quvchilarida so'z boyligini aniqlashning psixologik asosi deyilganda, ularning ongida kechadigan psixik

jarayonlar, ular lug'atidagi so'zlarning yoshiga va dunyoqarashiga mosligi hamda nutqiy faoliyatning yuzaga chiqishi bilan bog'liq omillar nazarda tutilgan.

V.Shtern o'zining tadqiqotlarida, 1 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning ya'ni, 1,6 yosh – 100 ta so'z; 2 yosh – 300-400 ta so'z; 3 yosh – 1000 -1100 ta so'z; 4 yosh – 1600 ta so'z; 5 yosh – 2200 ta so'z; 6 yosh – 2500-3000 so'zni bilishi lozimligini keltirib o'tadi. D.B.Elkonin esa, bola bir yoshda 10-12 ta; bir yarim yoshdan ikki yoshgacha o'rtacha 300-400 ta; uch yoshga kelib 1500 ta so'zni o'zlashtirishini aytadi. To'rt yoshdagi o'rtacha norma 1900 ta bo'lsa, besh yoshga kelib 2000-2050 taga yetadi. Bolalar 6-7 yoshda, taxminan, 3500-4000 ta so'zni bilishi kerakligini ta'kidlaydi.[3:267] Bolaning yoshi ulg'aygan sari bu ko'rsatkich ham o'zgarib boraveradi.


Mashhur fiziolog I.M.Sechenovning ta'kidlashicha, ilk bolalik davridagi bolalarning so'z boyligida o'z shaxsini bildiruvchi "men" degan olmosh tez-tez uchraydi, ya'ni, shu davrdan bola o'zini shaxs sifatida anglay boshlaydi. So'z boyligining o'sishi yoshga qarab sekinlashmaydi, balki yanada ortishda davom etadi. Rivers ham o'zining tadqiqotlarida kerakli miqdordagi so'z boyligiga ega bo'lish faqatgina o'sha tildan emas, ikkinchi til sifatida boshqa tillarni o'rganish jarayonida ham muvaffaqiyatli foydalanish uchun zarurligini aytadi. Chunki yetarli lug'at boyligiga ega bo'lmasdan bir tilning ichki imkoniyatlaridan foydalana olmaymiz. Shuningdek, u bolaning yoshi ulg'aygan sari so'z boyligini oshirish osonroq bo'lishini ham ta'kidlaydi. Maktabga kelish arafasida bolaning so'z boyligi o'z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. 6 yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o'z nutqida 3000-7000 so'zni ishlatadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar esa lug'at boyliklaridan o'z fikrlarini bayon etishdan ko'ra, suhbatdoshining yoki yaqinlarining diqqatini o'ziga qaratish maqsadida ko'proq foydalana boshlaydilar. R.S.Nemov o'zining tadqiqotlarida kichik maktab yoshidagi bolalarning passiv lug'atini aniqlashda psixodiagnostika eksperimentini ishlab chiqadi. Bunda o'quvchiga turli xil narsalarni tasvirlaydigan va odamlarning rasmlari ko'rsatiladi. Undan ushbu rasmda nima sodir bo'layotgani hamda nima ko'rsatilgani to'g'risida besh daqiqa batafsil gapirishi so'raladi. Bolaning nutqi yozib olinadi va keyin tahlil qilinadi. O'quvchi nutqining turli qismlari, bog'lovchilar orqali tuzilgan murakkab gaplari chastotasi qayd etiladi. Chunki bu bola nutqining rivojlanish darajasini ko'rsatadi.

Bolani o'qishga o'rgatish bo'yicha bir qancha kitoblarni nashr qilgan amerikalik bolalar shifokori Syuzan Kanizaresning ta'kidlashicha, bola qancha ko'p so'z bilsa, uning o'qish va yozishni boshlashi shunchalik oson bo'ladi va bolaning maktabda o'qishi va natijada undan yuksak salohiyatli inson bo'lib yetishib chiqish ehtimoli ko'proq bo'lishini aytadi.

K.Ushinskiy ona tilini barcha aqliy taraqqiyotning asosi, barcha bilimlar xazinasi, deb ta'kidlagan. Shuning uchun ham bolalarda nutqning o'z vaqtida rivojlanishiga yordam berish, uning sofligi va to'g'riligiga e'tibor qaratish lozim. Grammatikani o'rganish davrida bolaning tovushlar va so'zlarni to'g'ri, toza talaffuz qilishi ayniqsa muhimdir, chunki yozma nutq og'zaki nutq asosida shakllanadi va nutqdagi kamchiliklar e'tiborsiz qoldirilsa, bu holat muloqot jarayonida muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin.

P.Ivanov "Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi"[6:306], – deb aytadi. Demak, bolalarda so'z boyligining yetarli darajada yoki kam bo'lishi bevosita uning atrofida qilargalarga, bolaning rivojlanishiga hamda tafakkuriga bog'liq bo'ladi. O'quvchilarning so'z boyligini va fikrlash doirasini aniqlash jarayonida psixologik o'yinlar, mashqlar, treninglardan foydalanish muhimdir. Maktabning o'rta va yuqori sinflarida yozma nutq mazmunli, ta'sirli bo'lib, grammatik jihatdan tobora to'g'ri, mukammal tuzib boriladi va natijada bunday nutq og'zaki nutqning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. Bolalar nutqi bevosita kattalar nutqi ta'sirida o'sadi.

Quyida berilgan metodimiz (1-jadval) Frayer modeliga asoslangan. Bu model asosida beriladigan topshiriqlar o'quvchilarga matnlarni tinglash, o'qish va ko'rish jarayonida duch keladigan so'zlarning ma'nosini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, bu model o'quvchilarning so'z boyligini aniqlash va uni rivojlantirishda ham ishlatiladi.



1-jadval

O'quvchilar bu metod orqali ham so'zlarning antonim hamda sinonimlarini aniqlashni va lug'atdan foydalanishni ham yanada mustahkamlashdi.

Sinonimlar va antonimlar bilan ishlash orqali o'quvchilar tilda bir xil tushunchani bildiruvchi, biroq turli xil ma'no tushlari, emotsional-ekspressiv bo'yalishi va boshqa so'zlar bilan uyg'unligi bilan bir-biridan farq qiluvchi so'zlar ko'p ekanligini tushunib yetadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilarning so'z boyligi yoshiga, yashash muhitiga, bilimiga qarab turlicha bo'ladi. Bolaning lug'at boyligini aniqlash, so'z boyligining rivojlanishi, kengayishi va takomillashuvi ularning nutq

qobiliyatlarini rivojlantirish uchun asos hisoblanadi. So'z boyligi yetarli bo'lgan o'quvchining fikrlash qobiliyati rivojlanadi, tanqidiy fikrlashga o'rgatadi va dunyoqarashi kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Елизарова Е.Р. "Как оценить словарный запас современного школьника: содержание и технология констатирующего эксперимента", Международный студенческий научный вестник. – 2015. – № 5 (часть 1) – С. 18-19
2. Львов М.Р. Методика развития речи младших школьников: пособие для учителя. – 1985. – 176 с.
3. Эльконин Д.Б. Психическое развитие в детском возрасте. 2010. 267 с.
4. D.Nunan "Language teaching methodology", a textbook for teachers, 1991
5. N.Alavutdinova Ona tili darsliklarida ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi: P.f.n.diss-TDPU 2008.
6. Nishonova Z.T, N.G.Kamilova va boshqalar Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. –Toshkent:2018.
7. Текучев А.В. Методика русского языка в средней школе. – 3-е изд. – М.: Просвещение,1980.
8. П. И. Иванов Умумий психология. "Ўқитувчи", Тошкент, 1967, 306 -bet.

98
MORFOLOGIK SATHDA MIQDOR KONSEPTINING VOQELANISHI: OT VA SON SO‘Z TURKUMLARI MISOLIDA Egamberdiyeva Nilufar Latibjon qizi Page No.: 464-468
99
O‘QUVCHILAR LUG‘AT BOYLIGINI ANIQLASHNING PSIXOFIZIOLOGIK ASOSI Qayumova Ozoda Botir qizi Page No.: 469-472
100
VINTSIMON HARAkatDA QATTIQ JISMNING IXTIYORIY NUQTASINING HARAkat TENGLAMASI VA TEZLIGI Toshov.B.R, Nietbaev.A.D, Ismatov.A.A. Page No.: 473-476
101
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОТСЛЕЖИВАНИЯ ТОЧКИ МАКСИМАЛЬНОЙ МОЩНОСТИ (ТММ) С ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОЙ НЕЙРОННОЙ СЕТИ Эргашев Азизжон Абдурасул ўғли Page No.: 477-486
102
ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ИЗНОСОСТОЙКОСТИ И ДОЛГОВЕЧНОСТИ ПРИ РЕСТАВРАЦИИ ДЕТАЛЕЙ Ибрагимов Джахангир Солижанович Page No.: 487-496
103
HUDUDLARDA TRANSPORT INFRATUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH JIHATLARI Murodillayev Sardorbek Page No.: 497-501
104
EKSKAVATOR TURINING MEXANIK XUSUSIYATLARINI TA‘MINLAYDIGON FAZALI ROTORLI ASINXRON DVIGATELGA ASOSLANGAN ELEKTR YURUTMA TIZIMLARI Mamadjanov Baxodir Djuraxanovich, Mamatov Begzodbek Erkinjon o‘g‘li Page No.: 502-505